



**TOSHKENT DAVLAT
AGRAR UNIVERSITETI**

№6. [6]. 2025

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

**АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ**

**AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY**



**ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL**

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



“AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR” ILMIY- AMALIY ELEKTRON JURNALI

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), prof.

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), prof.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyev Nurali - i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich - i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich - q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich - q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich - v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich - b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich - q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li - q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n., dots.

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr, 345 sahifa.

E‘lon qilishga 2025-yil 30-avgustda ruxsat etildi.

M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

Baymirzaev Dilmurod Nematovich

Agrar korxonalar xo‘jalik faoliyatiga ta’sir etuvchi riskli omillarni aniqlash va tahlil qilish....6

Murotov Nodir Xujamqulovich

Mahalla institutlari faoliyatida kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy roli.....15

Abduvosit Omonboyev

Moliyaviy barqarorlikni baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar va metodlarning ilmiy tahlili.....22

Xidirnazarov Azamat Mamarajabovich

O‘zbekiston fond bozorining investitsion muhitini yaxshilash yo‘nalishlari.....30

Эргашев Тўлқин Шокирович

Инновацион тадбиркорлик фаолиятини кадрлар менежменти асосида қўллаб-қувватлаш самарадорлигини баҳолаш.....36

Normurodov Jamshit Baxshibek o‘g‘li

Buxoro viloyati iqtisodiy rivojlanishida suv resurslaridan foydalanishning hududiy omillari.....48

Sa’dullaev Oybek Turdiali o‘g‘li, Mirzayev Farxod Isamovich

“O‘zdonmahsulot” AK misolida risklarni baholash va boshqarishning zamonaviy yondashuvlari.....57

Bazarova Mamlakat Supiyevna

Korporatsiyalarda marketingning ahamiyati va nazariy asoslari.....65

Norqobilov Jahongir

Avtotransport xizmatini baholash yondashuv va usullari.....70

Abdullayev Altinbek Yangibaevich, Abdullayev Jasurbek Altinbekovich

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi risklarini baholash metodologiyasini takomillashtirish.....77

Abdullaeva Go‘zal Altinbekovna

Tijorat banklarining iqtisodiy xavfsizligini tartibga solishning xorijiy usuli.....91

Anorboyeva Baxtijamol Daniyar qizi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning statistik tahlili.....105

Халиков Суюн Равшанович

Роль инвестиций в реализации инновационных технологий в сельском хозяйстве Республике Узбекистане.....116

Исломова Фарида Ахад қизи

Туризм соҳасини бошқариш механизмларини такомиллаштириш омиллари.....123

Babayev Sandjar Yashinovich

Impact of greening agriculture to key macroeconomic indicators of Uzbekistan.....130

Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович

Демографическая динамика и обеспечение социальной инфраструктурой в приаралье: социо-экономический анализ.....139

UO‘K: 338.462.625.04

**AVTOTRANSPORT XIZMATINI BAHOLASH
YONDASHUV VA USULLARI****NORQOBILOV JAHONGIR**Qarshi davlat texnika universiteti
mustaqil izlanuvchisiE-mail: norkobilovjakhongir@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0005-4550-8806>

Annotatsiya. Maqolada avtotransport xizmatini baholashda yondashuvlar va usullardan foydalanish o‘z aksini topgan. Shuningdek, avtotransport xizmatini baholash xususiyatlari, rivojlanishi, avtotransport xizmatidan foydalanishda aholining turmush sifatini oshirish borasida avtotransport xizmatini baholashni samarali rivojlantirish, baholash natijalarining ishonchlilik darajasini oshirish, avtotransport xizmatini baholash boshqa turdagi obyektlarni baholashdan prinsipial farqlanishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: avtotransport vositalari, baholash, yondashuv, usul, hususiyatlari, aholi turmush sifati, qiymat, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi ehtiyoji, milliy an’ana va qadriyatlar, rivojlanish bosqichlari.

Аннотация. В статье отражено применение подходов и методов при оценке автотранспортных услуг. Также рассмотрены особенности и развитие оценки транспортных средств, эффективное развитие оценки транспортных средств с точки зрения улучшения качества жизни населения при использовании транспортных средств, повышение достоверности результатов оценки, а также принципиальное отличие оценки транспортных средств от оценки других. Были проанализированы типы объектов.

Ключевые слова: транспортные средства, оценка, подход, метод, характеристики, качество жизни населения, ценность, социально-экономическое развитие, потребности населения, национальные традиции и ценности, этапы развития.

Abstract. The article reflects the use of approaches and methods in evaluating motor vehicles. Also, the characteristics and development of motor vehicle evaluation, the effective development of motor vehicle evaluation in terms of improving the quality of life of the population in the use of motor vehicles, increasing the level of reliability of the evaluation results, and the principle difference of motor vehicle evaluation from the evaluation of other types of objects were analyzed.

Keywords: motor vehicles, assessment, approach, method, characteristics, population quality of life, value, socio-economic development, population needs, national traditions and values, development stages.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan 2020-yil 1-mayda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yagona milliy baholash standartida avtotransport xizmatini baholash bo'yicha standart mavjud emas. Shu sababli avtotransport xizmatini baholashda umumiy qoidalarga rioya qilinadi, ya'ni baholovchilar ko'p hollarda "Mashina va uskunalarni baholash" nomli 11-son mulkni baholash standartidan foydalanishadi.

Mamlakatimizda aholining turmush sifatini oshirish borasida avtotransport xizmatini baholashni samarali rivojlantirish, baholash natijalarining ishonchlilik darajasini oshirish va ochiqlikni ta'minlash kabilar yuzasidan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada avtotransport xizmatini baholash tasnifini takomillashtirish, baholashning samaradorligini belgilovchi ko'p o'lchovli iqtisodiy-matematik modelini yaratish, baholash xizmatlarining barqaror rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Avtotransport vositalari murakkab, ko'p komponentli mahsulotlar hisoblanadi. Ushbu obyektlarning qiymatini baholashdan o'tkazishda nafaqat yuqorida sanab o'tilgan umumiy iqtisodiy tamoyillar, balki tizimli yondashuv, funksional yondashuv, statistik modelashtirish va hayotiy sikl tamoyili kabi ilmiy tadqiqotlarda umumqabul qilingan yondashuvlar ham qo'llaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Avtotransport xizmatini baholash muammolari milliy va xorijiy olimlar hamda milliy mutaxassis-tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda. Xorijiy olimlar Dj.Fishmen, Sh.P.Pratt, K.Griffit, K.Uilson, A.V.Yudin kabilar biznes (korxona), mashina va uskunalarni baholash xizmatlarini o'rganishgan, ammo avtotransport xizmatini baholash xizmatlarining o'ziga xos tomonlari ushbu olimlar ishlarida chuqur o'rganilmagan.

Milliy iqtisodchi olimlarimizdan B.Berkinov, M.M.Muxammedov, A.I.Alikulov va boshqa olimlarning tadqiqotlari biznesni baholashning nazariy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlaridan foydalangan holda avtotransport xizmatini baholash xizmatlarining nazariy asoslari tadqiq qilingan va uni takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Mulk sifatida avtotransport vositalari o'ziga xos tomonlarga ega va baholash jarayonida ularning bu xususiyatlari birlamchi omil sifatida qaraladi. Shu sababli zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida avtotransport xizmatini baholashning metodikasini takomillashtirish orqali uning samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida avtotransport xizmatini baholash va rivojlanish bosqichlari masalalari qiyosiy fikrlash, induksiya va deduksiya hamda abstraksiya usullaridan keng foydalanilgan.

ASOSIY TAHLILLAR VA NATIJALAR

Baholashni tartibga solishning ijtimoiy jihatlarini faoliyatning ushbu turi bilan band mutaxassislarning o'ziga xos xususiyatlari va ularga nisbatan qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, baholovchilarning javobgarligi, professionalligi va mustaqilligini o'z ichiga oladi.

Baholashning turlaridan biri ko'char mulkni baholash bo'lib, uning xizmatlari tarkibida avtotransport xizmatini baholash xizmatlari alohida o'ringa ega. Bunda baholash faoliyatining asosiy maqsadi bo'lib avtotransport vositalariga egalik qilish, tasarruf etish va foydalanish bilan bog'liq jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat o'rtasida huquqiy munosabatlar yuzaga kelganda avtotransport vositalari qiymatini aniqlash hisoblanadi.

Avtotransport xizmatini baholash yondashuv va usullari amalga oshirishda qo'yidagi yondashuv va usullardan foydalanish mumkin:

Tizimli yondashuv baholash obyektni o'zaro bog'liq turli xil elementlardan tashkil topgan va boshqa tizimlar (tashqi muhit) bilan kirish va chiqish aloqalariga ega murakkab texnik tizim sifatida qarashni nazarda tutadi. Tizimning integrativ xossalari alohida xususiyatlarga ega va tizimga kiruvchi elementlar xossalari algebratik yig'indisiga olib kelmaydi.

Funksional yondashuvning mohiyati shundan iboratki, har qanday moddiy obyekt ma'lum funksiyani tashuvchi sifatida qaraladi. Funksiyalar foydali va foydasiz bo'lishi mumkin. Foydasiz funksiyalarning mavjudligi obyektning oqlanmagan qimmatlashuviga olib keladi. Funksional yondashuv tamoyili qiymat tahlili va qiymat injiniringi nazariyasining asosida yotadi.

Baholash yondashuvi umumiy metodologiya bilan birlashtirilgan baholash usullari yig'indisidan iborat. **Baholash usullari** baholash obyekti qiymatini mazkur usullar uchun muhim bo'lgan axborot asosida baholash yondashuvlarining bittasi doirasida aniqlash imkonini beradigan tartib-taomillar ketma-ketligidir[1].

Avtotransport vositalari qiymatini baholash xizmatlari "Yagona milliy baholash standarti"ga muvofiq 6-son MBS "Baholash yondashuvlari va usullari" talablariga rioya etgan holda quyidagi yondashuvlarni qo'llash bilan amalga oshiriladi:

- qiyosiy yondashuv;
- daromad yondashuvi;
- xarajat yondashuvi.


Har bir baholash yondashuvi doirasida 6-son MBS "Baholash yondashuvlari va usullari"da belgilangan baholash usullarini tanlashni baholovchi baholash maqsadi, baholash obyektni hususiyati va rivojlanish imkoniyatlari, cheklovchi shartlar, axborot bazasi mavjudligi va uning to'liqligini hisobga olib mustaqil amalga oshiradi. Baholash yondashuvlarining har biri turli qo'llanilish usullariga ega (1-rasm).

Avtotransport xizmatini baholashda baholash yondashuvi va usullarini tanlashdan ko'zlangan maqsad aniq holatlarda foydalanish uchun eng mos keladigan usulni topishdan iborat. Ularni tanlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- baholash maqsadlariga muvofiq tegishli baholash bazasi va baholash shart-

sharoitlari;

- baholashga qo'llasa bo'ladigan yondashuvlar va usullarning nisbatan kuchli va zaif tomonlari;
- avtotransport vositalari, yondashuv yoki usullarning tabiatini hisobga olgan holda tegishli bozor ishtirokchilari qo'llaydigan har bir usulning maqsadga muvofiqligi;
- usulni qo'llash uchun zarur bo'lgan ishonchli axborotning borligi.



Manba: Yagona baholash milliy standarti asosida muallif ishlanmasi.

1-rasm. Baholash yondashuvlari va usullari

Qiyosiy yondashuv – baholash obyektni savdo bitimlari haqidagi axborotlarga ega analog obyektlar bilan qiyoslashga asoslangan obyekt qiymatini baholashning usullari yig'indisi. Qiyosiy yondashuv almashtirish prinsipiga asoslanadi, ya'ni bu prinsipga asosan ratsional investor baholash obyekti uchun ushbu obyektga xos bo'lgan foydalilikka ega analog obyektни sotib olishda belgilangan qiymatdan ziyod pul to'lamaydi.

Qiyosiy yondashuvning usullari qiyosiy obyektlarning faol bozori mavjud bo'lganda, ayniqsa, samaralidir. Agar bozor axboroti juda kam bo'lsa, oldi-sotdi bitimlari doimiy bo'lmasa, bozor juda monopollashgan bo'lsa, bunday holatda bu usullarda baholash ishonchsiz, ba'zida esa imkonsiz bo'ladi. Shunga qaramasdan, aynan qiyosiy yondashuv usullari haqiqiy bozor qiymati haqida tasavvur hosil qilishadi.

Qiyosiy yondashuv aynan bir xil obyektlar yoki analoglarning sotilishiga doir bozor ma'lumotlaridan kelib chiqib baholash obyektining qiymatini aniqlashga asoslanadi. Aynan bir xil obyekt yoki analog bilan bitimlar to'g'risida axborot mavjud

bo'lmaganda, ishlab chiqaruvchi zavodlar, yetkazib beruvchilar takliflari to'g'risidagi axborot asosida qiyosiy yondashuvdan foydalanish mumkin.

Qiyosiy yondashuvni qo'llashda asosiy talab qiyoslash obyektini (analogni) to'g'ri tanlash hisoblanadi. Qiyoslash obyekti baholash obyektining nafaqat funksional, texnik, texnologik, jismoniy va iqtisodiy tavsiflari bo'yicha o'xshash bo'lishi, balki klassifikatsion o'xshash bo'lishi, ya'ni baholash obyekti va qiyoslash obyekti vazifasi hamda eng asosiy narxni hosil qiluvchi parametrlari qiymatlari bo'yicha bitta klassifikatsion guruhga mansub bo'lishi zarur.

Avtotransport vositalarini baholashda qiyosiy yondashuv quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- sotuvlarni to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash usuli;
- statistik tahlil usuli.

Qiyosiy yondashuvda **sotuvlarni to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash usuli** aynan bir xil yoki analog obyektlar narxiga ularning baholash obyektidan farqlanishiga qarab tegishli tuzatishlar (qiymat yoki foiz) kiritish orqali qo'llaniladi. Bunda analog bo'yicha bitimlar sanasi baholash sanasiga yaqin bo'lishi lozim. Avtotransport xizmatini baholashda taqqoslash birligi sifatida avtotransport vositasi birligi olinadi. Baholovchi o'z bilimi va malakasidan kelib chiqib boshqa taqqoslash birligidan foydalanishi ham mumkin, masalan dvigatel quvvati birligining narxi, dvigatel hajmi birligining narxi yoki boshqalar.

Baholovchi taqqoslanuvchi bitimlarni quyidagilarni hisobga olgan holda tanlashi kerak:

- bir nechta bitimlar buyicha ma'lumotlar, qoida tariqasida, bir martalik bitim yoki hodisaga qaraganda samarali hisoblanadi;
- juda o'xshash obyektlar bilan tuzilgan bitimlar, haqiqiy sotish bahosi mazkur bitimda jiddiy tuzatishlarni talab qiladigan obyektlarga qaraganda yaxshiroq ko'rsatkichni beradi;
- baholash sanasiga yaqinrok amalga oshiriladigan bitimlar uzoqroq muddatlarda, ayniqsa beqaror bozorlarda amalga oshiriladigan bitimlarga qaraganda ishonchliroq bo'ladi;
- bitimlar erkin bozor shartlarida o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lmagan taraflar ishtirokida sodir etilgan bo'lsa, bunday bitimlar baholash maqsadlarida ko'proq to'g'ri keladi;
- baholovchida taqqoslanuvchi obyekt tavsifini chuqurroq tushunish va baholash ko'rsatkichlarini tahlil qilish imkoniyati bo'lishi uchun, bitim haqidagi tegishli axborotdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;
- taqqoslanuvchi bitimlar haqidagi axborotni ishonchli va e'tiborga molik manbadan olish kerak;
- amalga oshirilgan bitimlar mo'ljallanayotgan bitimlarga (taklif narxiga) qaraganda ishonchliroq bo'ladi.

Baholovchi taqqoslanuvchi bitimlar (takliflar) narxlari bilan baholash obyekti o'rtasidagi har qanday jiddiy farqlarni tahlil qilishi va tuzatishlar kiritib borishi kerak. Tuzatishlar talab etiladigan eng ko'p tarqalgan farqlar quyidagilardan iborat:

- muhim tavsiflar (oʻlchami, tuzilishi va shunga oʻxshash boshqa xususiyatlari);
- baholash obyekti yoki taqqoslanuvchi obyektlarga qoʻyilgan tegishli cheklovlar;
- geografik oʻrni (aktivning joylashgan joyi yoki obyekt bilan bitim amalga oshirilishi mumkin boʻlgan yoki undan foydalanadigan joy) hamda tegishli iqtisodiy va xukukiy muxit;
- mulkchilik tavsiflari (masalan, egalik qilishning huquqiy shakli, egalik qilishning foiz ifodasidagi ulushi);
- taqqoslanuvchi obyektlar taklif narxlari va sodir etilgan bitimlar narxlari.

Statistik tahlil usullari analog-obyektlar narxlarining korrelyatsion-regression tahlildan foydalangan holda qiyosiy elementlariga bogʻliqligini aniqlash yoʻli bilan baholash obyekti qiymatini belgilashga imkon beradi.

Ushbu usulni qoʻllaganda modellashtirish ehtimoliy potensial narx bilan korrelyatsion aloqada boʻlgan analoglarning bir yoki bir nechta asosiy ishlab chiqarish va funksional parametrlarining tahlili asosida amalga oshiriladi.

Oʻzgaruvchan miqdorlar oʻrtasidagi statistik aloqalar korrelyatsion va regression tahlil usullari bilan oʻrganiladi. Korrelyatsion tahlil analoglar narxi va ularning asosiy parametrlari (bir va bir nechta) oʻrtasidagi aloqani oʻrnatishga imkon beradi, regression tahlil usullari bilan esa aniq matematik modelni tanlash va tanlangan modelning adekvatligini baholash mumkin boʻladi.

Daromad yondashuvi – mulk obyektidan kelgusida kutilayotgan daromadlarning yigʻindisi sifatida baholash obyektining joriy qiymatini aniqlashga asoslangan obyekt qiymatini baholash usullari yigʻindisi.

Daromad yondashuvidan foydalanilganda, obyekt qiymati undan foydalanish oqibatida keladigan daromadlar yoki pul oqimlari yoxud tejaladigan xarajatlarning qiymati bilan belgilanadi.

Daromad yondashuvida eng muhim omil investorlarning oʻz sarmoyalaridan daromad (samara) kutishlari boʻlib, bunda daromad olishda sarmoyalar boʻyicha aniqlangan tavakkalchilik darajalarini hisobga olishlari kerak boʻladi.

Baholash obyekti qiymatini daromad yondashuvi bilan baholash uchun baholovchi baholash obyektidan kutilayotgan daromadni baholash sanasidagi yagona qiymat birligiga aylantirishga asoslangan quyidagi usullarning biridan foydalanadi:

- pul oqimlarini diskontlash usuli – baholash obyekti qiymati baholash sanasi holatiga, prognoz va prognozdan keyingi davrlardagi (davarning oxiridagi) pul oqimlarining joriy qiymatlarini qoʻshish yoʻli bilan aniqlashga asoslanadi;
- daromadni kapitallashtirish usuli – baholash obyekti qiymati yagona davrdagi daromad miqdorini ushbu daromadga mos keladigan kapitallashtirish stavkasiga boʻlish orqali aniqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy va xorijiy adabiyotlar hamda soha mutaxassislari va olimlarning ilmiy ishlarini oʻrganish asosida, zamonaviy baholash yondashuvlarini hisobga olgan holda avtotransport xizmatining zamonaviy tasnifi ishlab chiqildi. Baholash nuqtayi

nazardan avtotransport xizmatining tasnifi baholovchilarga baholash obyekti mansub bo'lgan bozorni tahlil qilish, analoglarni va turdosh obyektlarni tanlash imkonini beradi. Avtotransport xizmatini baholash deganda litsenziyalı baholash tashkilotlarining iste'molchisi (buyurtmachi) buyurtmasiga asosan baholash maqsadi va tanlangan qiymat turiga muvofiq avtotransport vositalarining bozor yoki boshqa qiymatini aniqlashga qaratilgan baholash xizmatlarining turi tushuniladi.

Milliy va xorijiy adabiyotlar hamda soha mutaxassislari va olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish asosida, zamonaviy baholash yondashuvlarini hisobga olgan holda avtotransport vositalarining zamonaviy tasnifi ishlab chiqildi. Baholash nuqtayi nazardan avtotransport vositalarining tasnifi baholovchilarga baholash obyekti mansub bo'lgan bozorni tahlil qilish, analoglarni va turdosh obyektlarni tanlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Yagona milliy baholash standarti, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2020-yil 1-maydagi 01/11-15/62-son [buyrug'iga](https://lex.uz/docs/4842496) 1-ilova. <https://lex.uz/docs/4842496>
2. Оценка стоимости машин и оборудования. Учебное пособие/ Антонов В.П., Антонова Е.В. – М.: Ассоциация “Русская оценка”, 2005. – 254 с.;
3. Ковалев А.П., Кушель А.А. и др. Оценка стоимости машин, оборудования и транспортных средств. Учебник для ВУЗов – М.: Интерреклама, 2003. – 488 с.;
4. Юдин А.В. Оценка стоимости транспортных средств. – М.: Московская финансово-промышленная академия, 2005. – 75 с.
5. Беркинов Б., Кравченко А. Бизнесни баҳолаш: Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод ва молия, 2007. – 152 б.